

# **KOREYS TILINI O'RGANISH: SODDA VA MURAKKAB GAPLAR TUZILISHI**

Zayniddinova Sarvinoz Jamoliddin qizi,

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining 2-kurs talabasi,O'zbekiston  
Respublikasi,Toshkent shahri

## **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola hozirda ommalashib borayotgan koreys tilida sodda hamda murakkab gaplarning tuzilishi, bundan tashqari murakkab gaplarning turi haqida ma'lumot beradi.

## **Kalit so'zlar**

Koreys tili, sodda gap (단문), murakkab gap (복잡한 문장), ega, kesim

## **ИЗУЧЕНИЕ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА: СТРУКТУРА ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ**

Зайниддина Сарвиноз Джамолиддин кизи,

студентка 2-го курса Узбекский Государственный Университет Мировых Языков,

Республика Узбекистан, город Ташкент

## **АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация о структуре простых и сложных предложений, а также о типе сложных предложений в корейском языке, который популярен в настоящее время.

## **Ключевые слова:**

Корейский язык, простое предложение (단문), сложное предложение (복잡한 문장), подлежащее, сказуемое

# **STUDYING KOREAN LANGUAGE: STRUCTURE OF SIMPLE AND COMPLEX SENTENCES**

Zayniddinova Sarvinoz Jamoliddin kizi,

2nd year student at the Uzbekistan State World Language University,  
Republic of Uzbekistan, Tashkent city.

## **ABSTRACT**

This article provides information on the structure of simple and complex sentences, as well as the type of complex sentences in the Korean language, which is popular at present.

### **Key words:**

Korean language, simple sentence (단문), complex sentence (복잡한 문장), subject, predicate

## **KIRISH**

Gapning tuzilishi turli tillarda har xil namoyon bo'lib, murakkablik jihatni tomonidan farq qiladi. Hozirgi kunda ommalashib borayotgan koreys tili ham bundan mustasno emas. Gap o'zi nima? Gap — muayyan til qonuniyatiga ko'ra grammatik va intonatsiyaviy shakllangan nutq birligi. Fikr shakllanishi va ifodalanishining asosiy vositasi. Gap so'z, so'z birikmalariga qarama-qarshi qo'yiladigan sintaktik kategoriadir.<sup>1</sup> Har bir gap ohang jihatdan shakllangan bo'ladi. Gapning boshlanishi va tugallanishi uning ohangidan sezilib turadi. Gap oxirida ohang ham tugallanadi. Ko'pchilik tillarga xos bo'lgan ushbu xususiyatni o'zbek tilida ham uchratish mumkin. Chon Gi Chhol (정기철) unga quyidagicha ta'rif berad:

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gap#:~:text=Gap%20%E2%80%94%20muayyan%20til%20qonuniyatiga%20ko%CA%BBra,qarama%2Dqarshi%20qo%CA%BBiladigan%20sintaktik%20kategoriadir>.

좋은 문장의 요건.

좋은 문장이란 일반적으로 적확한 어휘로 글쓰는 이의 동기와 목적에 맞도록 표현

-

전달된 글을 말한다. 점 더 구체적으로 말한다면 좋은 문장의 성립 역시 “무엇을” 썼느

냐, “어떻게” 썼느냐의 문제라고 할 수 있다. 즉, 좋은 문장은 ‘무엇을’(내용)과 ‘어떻

게’(표현 방식)를 모두 갖추고 있어야 한다.

To'gri tuzilgan jumlaning ahamiyatli tarafi.

To'g'ri tuzilgan jumla, avvalam bor, aniq tanlangan so'zlarning sabab va maqsadiga to'g'ri keladigan ifodalarni o'zida yaqqol namoyish etishiga aytildi. Ilmiyroq qilib aytadigan bo'lsak, to'g'ri tuzilgan jumlaning asosida “nimani?” “qanday?” yozish muammosi yotadi. Ya'ni, to'g'ri tuzilgan jumlaning asosida “nimani?”(mazmun) va “qanday?”(ifoda usuli) degan savollarni ifodalovchi mazmun yotishi kerak.<sup>2</sup> Koreys tilida ham boshqa tillar singari gap bo'laklari, gap qurilishidagi vazifalariga ko'ra, ikki turga bo'linadi: bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklar, ya'ni, ega va kesim gapni tashkil etishda muhim ro'l o'ynab, gapni tashkil etuvchi asosiy sintaktik birliklar hisoblanadi. Gapda bosh bo'laklardan tashqari boshqa bo'laklar ham qatnashishi mumkin. Lekin ular gapni tuzishda asosiy ro'lni o'ynamaydi. Shuning uchun ham ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deb yuritiladi. Ikkinci darajali bo'laklar bosh bo'laklarni ma'nosini aniqlashtirish, fikrni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ular o'z vazifalariga ko'ra, uch xil bo'ladi: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

## SODDA GAPLARNING TUZILISHI

<sup>2</sup> 정기철. 문장의 기초. 서울. 도서출판 열락. 2004. 23 쪽. (Chon Gi Chhol, Gap asosi).

Sodda gap (단문) — o‘z tarkibida birgina predikativ birlikka ega bo‘lgan, ma’lum fikr ifodalay oladigan, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik birlik.<sup>3</sup> Masalan, 저는 집에 가요 (Men uyga ketyapman) gapini misol qilishimiz mumkin. Sodda gaplar, tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo’laklarning qatnashishiga qarab, ikki xil bo’ladi: yig’iq gap 간결한 문장 [kangyol han munjang] va yoyiq gap 충실한 문장 [chhung shil han manjang].<sup>4</sup> Sodda yig’iq gaplar faqatgina bosh bo’laklar iborat bo’ladi, ya’ni ega va kesimdan. Sodda yoyiq gaplar bosh hamda ikkinchi darajali bo’laklardan iborat bo’ladi. Gap tarkibida ega va kesimdan tashqari, aniqlovchi (관형어 - [kyujongo]) to’ldiruvchi va hol (부사어-[busaeo]). Misollar orqali ko’rib chiqamiz.

가을이 왔어요-Kuz keldi. Bu yerda “가을이” “Kuz” so’zi ega,” 왔어요” “keldi” so’zi esa kesim vazifasida kelgan bo’lib, bu soda yig’iq gapga misol bo’la oladi. “우리 나라에 가을이 왔어요”-Bizning yurtimizga kuz keldi. 우리 나라에 (bizning yurtimizga) hol, 가을이 (kuz) – ega, 왔어요 (keldi) – kesim. Bu gap esa sodda yoyiq gapga misol bo’la oladi.

## MURRAKAB GAPLARNING TUZILISHI

Murakkab gaplar (복잡한 문장) ikki yoki undan ortiq mustaqil yoki ergash gaplar bog‘langan holda ifodalanadigan gaplardir. Murakkab gaplar har xil usullarda bog‘lanib, fikrni kengroq va to‘liqroq ifodalashga yordam beradi. Murakkab gaplarda ikki va undan ortiq kesimdan iborat bo’ladi. Murakkab gap bu – sintaktik butunlikning eng yuqori cho’qqisidir.<sup>5</sup> Koreys tilida murakkab gaplarning ikki xil turi bor: ergashgan murakkab gaplar va bog‘langan murakkab gaplar. Bog‘langan qo’shma gaplar 고(va), ~거나 (yoki), ~며(bir vaqtning o‘zida) ~지만(ammo) kabi bog‘lovchilar yordamida bo’lanadi. Masalan, 시간이 없지만 열심히 공부해요. Tarjimasi : Vaqtim yo’q, lekin astoydil o’qiyapman. Bu yerda **지만** orqali gap yasaldi. Yana misol qilib 주말에는 쉬거나 친구들과 파티에 갈

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sodda\\_gap#:~:text=Sodda%20gap%20%E2%80%94%20o%CAB%BBz%20tarkibida%20birgina,bulutlar%20tushga%20borib%20quyuqlasha%20boshlaydi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sodda_gap#:~:text=Sodda%20gap%20%E2%80%94%20o%CAB%BBz%20tarkibida%20birgina,bulutlar%20tushga%20borib%20quyuqlasha%20boshlaydi)

<sup>4</sup> 남기심. 현대 국어 통사론. (Nam Gi Shim. Koreys tili sintaksisi) 서울. 2002년, 67쪽.

<sup>5</sup> 남기심. 국어문법론 강의. 공저. 학연사. 1999. 78쪽. (Nam Gi Shim, Ona tili nazariy grammatikasidan ma’ruzalar).

거 예 요 .Tarjimasi : Hafta oxirida dam olaman yoki do'stlarim bilan bazmga boraman.Umumiyl qilib yozadigan bo'lsak,koreys tilida murakkab gaplarning biritiruv ,ayiruv,zidlov hamda inkor munosabatda bo'ladigan turlari mavjud.Ergashgan murakkab gaplarning koreys tilida bir necha turi mavjud. Bular :ega ergash gap,kesim ergash gap,to'ldiruvchi ergash gap,sabab ergash gap,taqqoslovchi ergash gap,o'lchov daraja ma'nosida ergash gap,to'siqsiz ergash gap,aniqlovchi ergash gap,ravish ergash gap,payt ergash gap,maqsad ergash gap va o'rinn ergash gap.Ega ergashgan murakkab gapga 누구 거짓말을 많이 말하면 그 사람 사람들한데서 존경 을 잃을 것이다 gapni misol qilisgimiz mumkin .Tarjimasi: Kim yolg'oni ko'p gapirsa, u odamlar orasini o'z xurmatini yo'qotadi.Kesim ergashgan murakkab gapga : 지금은 제일 중요한 일이나 라의 안정과 발전이다.Tarjimasi:Hozirda eng muhim ish shuki, Vatan tinchligi va barqarorligidir.Ergashgan murakkab gapning har bir turida uning yasalishini shartlari bo'ladi.Masalan yuqorida misol keltirgan ikkita ega va kesim ergashgan murakkab gaplarni olaylik.Ega ergashgan murakkab gaplarni yasash uchun bosh gapda olmosh (ko'rsatish, so'roq) orqali ifodalananadi.Kesim ergashgan murakkab gapda esa bosh gapning kesimi faqat ot kesim bilan ifodalishi kerakdir.<sup>6</sup>

## XULOSA

Koreys tilida barcha tillarda bo'lganidek sodda va murakkab gaplar mavjud.Bundan tashqari,sodda gaplar qisqa fikrlarni ifodalashga samarali bo'lsa, ikki (yoki undan ortiq) sodda gapning yonma yon turishi, ularning murakkab gapni tashkil etdi degani emas. Ular o'zaro shunchaki ma'lum bir fikrni ifodalagan bo'ladi, xolos. Modomiki, murakkab gap tugal fikrni ifodalovchi ma'lum bir butunlikni talab etadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.<sup>7</sup>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI

<sup>6</sup> Koreys tilida murakkab gaplar sintagmatikasi.2013.52-bet Ashirbayeva Dilorom Ravshanovna

<sup>7</sup> Lee Iksop and S.R.Ramsey. The Korean Language. New York: State University of New York

- 1.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Gap#:~:text=Gap%20%E2%80%94%20muayyan%20til%20qonuniyatiga%20ko%CABra,qarama%2Dqarshi%20qo%CABByiladigan%20sintaktik%20kategoriyadir>
2. 정기철. 문장의 기초. 서울. 도서출판 열락. 2004. 23 쪽. (Chon Gi Chhol, Gap asosi).
- 3.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Sodda\\_gap#:~:text=Sodda%20gap%20%E2%80%94%20o%CABz%20tarkibida%20birgina,bulutlar%20tushga%20borib%20quyuqlasha%20boshlaydi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sodda_gap#:~:text=Sodda%20gap%20%E2%80%94%20o%CABz%20tarkibida%20birgina,bulutlar%20tushga%20borib%20quyuqlasha%20boshlaydi)
4. 남기심. 현대 국어 통사론. (Nam Gi Shim. Koreys tili sintaksisi) 서울. 2002 년, 67 쪽.
5. 남기심. 국어문법론 강의. 공저. 학연사. 1999. 78 쪽. (Nam Gi Shim, Ona tili nazariy grammatikasidan ma'ruzalar).
6. Koreys tilida murakkab gaplar sintagmatikasi. 2013.52-bet Ashirbayeva Dilorom Ravshanovna
7. Lee Iksop and S.R.Ramsey. The Korean Language. New York: State University of New York